

**BAXTISHOD BAXRIDIN OGLI UMAROV**

Bukhara State University

Uzbekistan

*Received 1<sup>th</sup> December 2022, Accepted 5<sup>th</sup> December 2022, Online 12<sup>th</sup> December 2022*

## **SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS**

**Abstract.** In this article, the changes in the field of science, the rise of the education system to a new level, and the development of the field of architecture during the reign of the Samanids, who ruled Movaraunnahr, Khorasan, and Northern Iran at the end of the early Middle Ages, as well as the problems related to the works of scientists who lived and created during this period were scientifically analyzed.

**Key words:** science, education, madrasa, mosque, history, literature, culture, Khanaqah, Samanids.

## **НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ И КУЛЬТУРА В ГОДЫ ПРАВЛЕНИЯ СОМАНИЙЦЕВ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены изменения в области науки, подъем системы образования на новый уровень, а также развитие области архитектуры в период правления Саманидов, правивших Мовераннахром, Хорасаном и Северным Ираном в конце раннего Средневековья, а также проблемы, связанные с трудами ученых, живших и творивших в этот период.

**Ключевые слова:** наука, образование, медресе, мечеть, история, литература, культура, ханака.

## **SOMONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA ILM-FAN, TA'LIM VA MADANIYAT**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar so'ngida Movaraunnahr, Xuroson va Shimoliy Eronda hukmronlik qilgan Somoniylar hukmronligi davrida o'lkadagi ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar, ta'lim tizimining yangi bosqichiga ko'tarilishi va me'morchilik sohasining rivojlanishi, shuningdek, shu davrda yashab ijod qilgan olimlar asarlari bilan bog'liq muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilm-fan, ta'lif, madrasa, masjid, tarix, adabiyot, madaniyat, xonaqoh, somoniylar.

**KIRISH (INTRODUCTION)**

Buxoro ilm ahli, adiblari haqida qimmatli va boy ma'lumotlar yozib qoldirgan Muxammad ibn Ja'far Narshaxiy, Abu Mansur Abdumalik ibn Muxammad as-Saolibiy (961-1038), Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muxammad an-Nasafiy (1068-1142), Abu Sa'd Abdukarim ibn Muxammad as-Sam'oni (1113-1167), Yoqut al-Hamaviy (1179-1229), Mu'in al-fuqaro Ahmad ibn Mahmud al-Buxoriy (XIV-XV) kabi mualliflar asarlari bizga qadar yetib kelgan. Mutaxassislar ularning orasida Yoqut al-Xamaviyning «Mu'jam al-udabo», «Mu'jam buldon» asarlaridagi Buxoroga oid ma'lumotlardan ham foydalanishgan. Biroq, ular alohida tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olinmagan va etarli darajada to'liq o'r ganilmagan.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHЛИLI****(LITERATURE REVIEW)**

Arablar istilosidan keyin mahalliy davlatlarning vujudga kelishi, ular davrida ta'lim, ilm-fan va me'morchilikning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lganligi sababli qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. IX-XIII asrlarda yozilgan asarlar.
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarda O'zbekismtonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)**

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

O'rta asrlarning mashxur sayyohi va olimi Yoqut al-Hamaviyning «Mu'jam ul-udabo» (Adiblar lug'ati) asarida Buxoro adiblari haqida ham muhim ma'lumotlar uchraydi. Mo'g'ullar bosqini tufayli Yokut al-Xamaviy Buxoroga borish va u yerdagi adabiy muhit bilan yaqindan tanishish imkoniyatidan maxrum bo'lgandi. U Abu Ruj'a ibn Sa'id, Muxammad ibn Ishoq, Islomiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Sa'd Abdukarim as-Sam'oni, Al-Xakim ibn al-Bayya' kabi allomalar asarlaridan foydalanib to'qqiz nafar buxorolik adib haqida axborot beradi. Yoqut al-Xamaviy ma'lumotlari ham ushbu tadqiqotga jalg qilindi.

Somoniylar davrida Buxoroda ilm-fan ravnaq topib, madaniyat gullab-yashnaganini tasdiqllovchi qo'plab tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu jarayon qoraxoniylar, g'aznaviylar, buyuk saljuqiylar va xorazmshohdar davrida izchil davom etadi. Xorazm faxri Maxmud az-Zamaxshariy, Iroq as-Sinoriy, Muxammad ibn Sobit Muhammad Isbaxoniy kabi davrining mashhur allomalari ilmlarini mukammallashtirish maqsadida Buxoroga kelishgani bejiz emasdi. Buxoro allomalari va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan mualliflar asarlarida VIII - XI asrlar oraliq'ida Muqotil ibn Sulaymon al-Kurayshiy, Abdullox, ibn Abduya (Abdavayx,) ibn an-Nazr ibn Xushtiyor, Isxoq ibn Bashir ibn Muhammad al-Buxoriy, Shayx Xoja Abu Xafs ibn az-Zabirqon ibn Abdullox, ibn al-Bahr al-Ijli al-Buxoriy, Abu Abdullox, Muhammad ibn Ismoil ibn

Ibrohim al-Mug‘iyra ibn Vardazbex, al-Ju’fiy al-Buxoriy, Abu Ahmad Isa ibn Muso Gunjar al-Buxoriy, Abdulloh, ibn Yakub ibn al-Horis al-Buxoriy, Muxammad ibn AhmadS ibn Muhammad ibn Sulaymon ibn Komil al-Gunjar, Abdullox, ibn Abul Lays Ubaydullox, ibn Surayj Buxoriy, Abu Hafs Kutayba ibn Ahmad ibn Surayj ibn Usmon al-Buxoriy, Abu Solih, Xalaf ibn Muhammad al-Buxoriy, Abu Hafs Umar ibn Mansur ibn Ahmad al-Buxoriy singari yuzlab olimlar yashagan. Ular tilshunoslik, adabiyot, tafsir, hadis, riyoziyot (matematika) kabi turli ilmlar sohasida ko‘plab asarlar yozishgan va o‘z davrining mashhurlaridan bo‘lishgan. Islom dini VIII asrda bu o‘lka zaminiga chuqur ildiz yoydi va mustahkamlandi. Shu asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa oxirgi choragida mamlakatda yangi tamaddunni shakkantiruvchi hadis, tajvid, tilshunoslik, tafsir, tarix, butkul o‘zga mazmundagi adabiyot va boshqa ilmlar paydo bo‘ldi. Bir guruh qo‘lyozma manbalar asosida Buxoro ta’limi tizimi tarixini o‘rgangan A.Jumanazarov shahardagi eng qadimiy madrasalar xususida quyidagilarni ta’kidlaydi. “Muxammad Sharif Mahdum bayon qilgan Buxoro ilm ahli o‘rtasidagi bahsni hisobga olib Kalabod va G’aribiya madrasalarini eng ko‘hna ilm dargohlari qatoriga kiritdik.

Ishimizda ularning safiga yana beshta Madrasa qo‘sildi. Abu Hafs al-Kabir madrasasi VIII asr oxiri va IX asr boshlarida qurilgan. Abu Bakr ibn al-Fazl madrasasi IX asr oxiri va X asr boshlarida qurilgan. Abdukarim as-Sam’oni u haqida yozib qoldirgan. Forjak madrasasi to‘g‘risida dastlabki ma’lumot Narshaxiya tegishlidir. Buxoroning eng qadimiy madrasalaridan biri edi, milodiy 937-yil may-iyun oyida yonib vayron bo‘lgan. Keyinchalik Madrasa qayta ta’mirlanadi. XII asr mualliflaridan Abdukarim as-Sam’oni uni Farjak darvozasi yonida deb ko‘rsatadi. Timchai Xon madrasasi haqida Mu’in al-fukaro Ahmad ibn Mahmud axborot beradi. Imom ul-muslimin madrasasi qorixona edi. Balki, keyingi davrlarda barpo kilingandir. O‘rnini hozircha aniklay olmadik. Ammo Abu Xafs Kabir Buxoriy mozorida joylashgan bo‘lsa kerak, degan taxminimiz mavjud”<sup>1</sup>. A.Jumanazarovning ma’lumotlariga qaraganda, XI-XIV asrlar davomida Buxoroda quyidagi madrasalar faoliyat yuritgan: XI-XIV asrlar Kulartegin madrasasi Jubayi baqdolon (Baqqollar bozori) guzarida joylashgan. Narshaxiy kitobida ushbu madrasaning bunyod bo‘lishi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumot keltiriladi. Qadrxon Jabrail yoki Kulartegin qoraxoniylar sulolasini hukmdorlaridan edi. U 1099-1102-yillarda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymonidan oldin hukmronlik qilgan.

Arslonxon madrasasi - xon madrasasi deb ham yuritiladi. Muhammad Sharif Maxdumning aytishicha, uning asl nomi Kalaboddir. XII - XVII asrlar oraliq‘ida Arslonxon madrasasi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Imom Muxammad G‘azzoliy madrasasi Sufiyon dahasida Imom G‘azzoliy guzarida edi. Qorixona bo‘lgan. Qurilgan davri aniq emas. Mashhur alloma Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy at-Tusiying (1058-1111) yashagan davrini hisobga olib mazkur ro‘yxatga kirityapmiz Mazkur oliy o‘quv dargohlaridan faqat Arslonxon madrasasining XI asrga mansub vaqf hujjati saqlanib qolgan. Jo‘yboriy Abdurahimhoja Kalabod madrasasini qayta qudirib, ungamulklar vaqf qilganida tuzgan hujjati oldidan Arslonxon madrasasi vaqf hujjatini ham keltiradi. Buxoroda Somoniylar sulolosining hukmronligi sharq uyg‘onish davri bilan uyg‘un holda kechdi. Bu davrda Buxoroda tug‘ilib, ijod qilgan, o‘zining ko‘p qirrali ilmiy faoliyati bilan odamni hayratga solgan ko‘p olimlar, fozil-donishmandlar etishib chiqdi. Ana shunday allomalardan biri Imom Ismoil al-Buxoriy bo‘lib, u Buxoroda tug‘ilib voyaga etdi, ko‘p yillar Makkayu-Madina, Damashq, Bag‘dod shaharlarda yashab-al-Jomi’ as-sahih (Sahih hadislar to‘plami)ni yaratdiki, bu to‘plam hozirgi vaqtida ham o‘z axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan va islom dinida Qur’oni Karimdan keyin

ikkinchi o‘rinda turadi. Jumladan, Abu Hafs Kabir (Imomi Hojatbaror) ham islom fiqh ilmida dong taratgan ilohiyotchi olimlaridan biri edi. U Qur’oni Karimni chuqur o‘rgangan fiqh olimi bo‘lib, butun islom olamida islom huquqshunosligi bilan bog‘liq dolzarb muammolar shu kishi mashvarati bilan hal qilingan. Muhammad an-Narshaxiy - Buxoro tarixi kitobining mualifi, o‘z davrida Mavarounnahr tarixini yozib qoldirganki, bu kitob hozirgi vaqtida ham tarixchi olimlar uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Buxoroda Somoniylar saroyida yashab ijod qilgan, Odam ush-shuaro unvoniga sazovor bo‘lgan Abu Abdulloh Ro‘dakiy – butun dunyoda fors-tojik she’riyati asoschisi sifatida tan olinadi. Bu tabbaruk siymolar Buxoroni butun dunyo ahamiyati ega shaharlardan biriga aylanishida munosib hissa qo‘shgan, beminnat xizmat qilgan ma’rifat peshvolari edilar.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS)**

Somoniylar davlatida IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o‘zgarishlar yuz bergani va bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlar hukmron bo‘lib turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Buxoro va Samarqand shahrida ilmiy jarayonlarning jonlanishiga zamin yaratdi. Samarqandning buyuk ipak yo‘lida joylashgani tijorat, san‘at va ilm markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, somoniylar davrida Samarqandda nafaqat islom dinining, balki boshqa dinlarning ham ta‘lim markazlari faoliyat olib borgan. Mazkur tadqiqot ishida qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahrda mustahkam imperiya sifatida hukmronlik qilgan somoniylar davridagi shu barqarorlik tarixi haqida ma'lumot berishga harakat qildim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE)**

1. Абу Бакр Мұхаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарқ мاشылига илова, 1993
2. Пугаченкова Г.А. И smoил Сомоний мақбараси. –Тошкент: Госиздат УзССР, 1964. – Б.2
3. Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.43-46.
4. Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида.2-китоб. –Бухоро: Дурдона нашриёти, 2018.
5. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. -Т: Ўқитувчи.1994.
6. Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. - Т.: Ўзбекистон, 1995.
7. Ахметова Ш.С. Историческое краеведение в Казахстане: учебное пособие. – Алматы, 2012.
8. Негматов Н. Государство Саманидов, -Душанбе,: “Дониш”, 1997,- 2006.
9. Баходиров Р., Расулов Д. Ислом илмларининг буюк алломалари. Т.: 2000, -246.
10. UMAROV B. ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 94-100.